

SHARQ MUSIQA MEROSINING NOYOB ASBOBI

Ismatova Oyniso Hikmat qizi

Navoiy davlat universiteti “San’at va sport” fakulteti

“Musika ta’limi” yo’nalishi 3 – kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Umrzoqova Laylo Baxtiyor qizi

“Musika ta’limi” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qashqar rubobining ijro etish usullari o’rganiladi. Qashqar rubobi Sharq musiqiy an’analarining noyob namunalaridan biri bo’lib, uning o’ziga xos tuzilishi va tembr imkoniyatlari turli ijro usullarini shakllantirishga imkon beradi. Cholg’uning texnik va ifodaviy imkoniyatlari, torlarning sozlanishi, urish, chertish, siljitish (glissando), vibrato kabi asosiy ijro usullari haqida so’z yuritiladi. Shuningdek, qashqar rubobida pozitsiya, shtrixlar, o’ng va chap barmoqlarning qo’yilishi, ijrochilik ta’limi, ijrochilik san’atining o’rni, uning ijro etish usullari hamda texnik imkoniyatlar o’rganilgan.

Kalit so’zlar: qashqar rubob, mi va lya sozlanishi, ijrochilik ta’limi, qashqar rubob tarixi,

O‘zbek xalq cholg’ularining tarixi qadimdan o’rganilib kelinadi. IX-XVII asrlarda yashab o’tgan O’rta Osiyo olimlarining risolalarida musiqiy cholg’ularning tavsifini, mashhur musiqachilar nomini, mashhur musiqiy asarlar nomini uchratish mumkin. O‘zbek an’anaviy musiqasini yig’ish va o’rganish XIX asrning 70-yillaridan boshlab keng miqyosda olib borila boshladi. Shuningdek, Qashqar rubobi 1937 - yillardan boshlab qo’llanila boshlagan. Bu borada rubob musiqa cholg’usining eng yetuk mutrib sozandasi O‘zbekiston xalq artisti ustoz Muhammadjon Mirzayev bilan suhbat shuni ko’rsatadiki, Toshkentda dastlab bir uyg’ur sozandasi bu cholg’uni ijro etib yurgan. Muhammadjon Mirzayev bu rubobni ko’rib undan nusxa olish maqsadida O‘zbekistonda xizmat ko’rsatgan San’at Arbobi xalq ustasi Usto Usmon Zufarov ustaxonasiga boradi. Aynan shu 1937 - yilda O‘zbekistonning Moskva shahrida bo’ladigan birinchi dekadasiga tayyorgarlik ko’rilib, turli xil musiqa cholg’ulari ham tayyorlanayotgan edi. Shu yili Usto Usmon Muhammadjon Mirzayevga o’zi olib kelgan Uyg’ur rubobidan aynan nusxa olib bir necha rubob

tayyorlaydi va birinchi tayyorlangan Qoshg‘ar rubobi Muhammadjon Mirzayevga taqdim etiladi. Ma‘lumki bu turdagi rubob aynan tanbur singari bo‘lib, bunda pardalar bog‘langan, sozlanishi ham aynan tanbur singari bo‘lgan. Faqat bu yangi tayyorlangan rubobda bog‘langan pardalar o‘rniga, po‘latdan yasalgan pardalar o‘rnatiladi. Sozlanishi avalgidek kvinta ya‘ni lya, re, lya ovozlari. Bu turdagi sozlanish rubobning an‘anaviy sozlanishi, keyingi yillarda qayta tayyorlangan rubobning sozlanishi lya, mi, lya kvarta ovozlari, lekin to hozirgi kungacha Muhammadjon Mirzayev va ustozning farzandlari Shavkat Mirzayev an‘anaviy sozlarda behisob musiqiy asarlarni bastalab, cho‘lg‘u va ashula yo‘li uslubida hamda jo‘rvozlik ijro yo‘lida ikki rubob jo‘rligida ijro etib kelishmoqda. 1937 - yilda yana ushbu rubobdan nusxalar olinib, rubobda Abbos Bahromov, Bo‘riboy Mirzaahmedov, Ergash Shukurillayevlar ham ushbu sozda chalish sirlarini o‘rgana boshladi. Rubob so‘zining o‘zi fors – tojik tilidan olingan bo‘lib, “ruh ovozi” degan ma‘noni anglatadi. Qashqar rubobi o‘z tuzilishi jihatidan boshqa ruboblardan farq qiladi. Uning korpusi o‘ymakor yog‘ochdan yasaliib, tovush chiqarish qobiliyati kuchli va keng diapazonga ega. Rubob odatda, 5 dan 7 gacha torlarga ega bo‘ladi, ular metallardan tayyorlanadi. Qashqar rubobi - yarim doyra shaklidagi dumaloq o‘yma kosaxonasining usti teri bilan qoplangan bo‘lib, uning yo‘g‘on va uzun dasta o‘rnatiladigan qismi yon tomonlaridai chiqib turadigan ikkita yog‘och shoxchalari ushbu cholg‘uning xarakterli belgisi sifatida ko‘zga tashlanadi. Qashqar rubobi torlarining soni beshta: uchtasi ipakdan (yoki paydan), ikkitasisimdan (hozirgi paytda hammasi har xil yo‘g‘onlikdagi simdan)dir. Ular kvarta-kvintagasoizlanadi. Rubob dastasiga uch oktava hajmidaga to‘la xromatik tovushqator hosil qiladigan 19—23 ingichka pay parda bog‘langan (hozir esa deyarli hamma dastasi ust qismiga metall qalam chalar yopishtirilgan) bo‘ladi. Oddiy mediator (noxunak) bilan afg‘on rubobidek chalinadi. Rubob o'zbek milliy cholg'u asboblari orasida alohida o'rin egallaydi. Qashqar rubobining sozlanishi . Qashqar rubobning birinchi juft tori birinchi oktavaning “Lya” tovushiga, ikkinchi juft tori birinchi oktavaning “Mi” tovushiga, uchinchi tori esa kichik oktavaning “Si” tovushiga sozlanadi. Bundan tashqari, qanday asar ijro etilishiga qarab, uchinchi tor kichik oktavaning “Lya” hamda ikkinchi tor birinchi oktavaning “Re” tovushlariga ham sozlanishi mumkin.

Qashqar rubobi – O‘rta Osiyo, xususan Sharqiy Turkistonda keng tarqalgan qadimiy torli cholg‘lardan biridir. U milliy musiqa san‘atining boy merosi sifatida

ajralib turadi. Qahqar rubob xalqimizning qadimiy musiqiy merosini saqlab qolgan va uni zamonaviy sahnaga olib chiqqan noyob cholg‘ulardan biridir. Uning nafis ovozi, betakror tuzilishi va ijro uslubi milliy musiqamizning nozik jihatlarini ochib beradi. Bu cholg‘u nafaqat o‘tmish san’atining yodgorligi balki, bugungi kunda ham yosh ijrochilarni ilhomlantiruvchi manba bo‘lib xizma qilmoqda. Rubob san’ati avloddan – avlodga o‘tib, o‘zbek va uyg‘ur xalqlarining madaniy hayotida alohida o‘rin egallaydi. Qashqar rubobida ijro usullari o‘ziga xos nafislik, noziklik va texnik mahorat bilan ajralib turadi. Bu cholg‘uda chalish usullari kuyning ohangdorligini, ritmik tuzilishini va ifoda kuchini boyitadi. Asosiy usullariga mizrob urish, tortish (glissando), terish (trill), urib chalinadigan ohanglar (stakkatolik texnika) va barmoq bilan torni chertish kiradi. Har bir usul ijrochining hissiyotini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Qashqar rubob ijrochiligi asosan xalq kuylariga, maqomlarda va raqs musiqalarga asoslanadi, bu esa texnik va ifodaviy jihatdan boy uslublar talab qiladi. Umuman olganda, qahqar rubobi usullari Sharq cholg‘u san’atining yuksak namunasi bo‘lib, nafaqat texnika, balki ruhiy ifoda va madaniy merosni ham o‘zida mujassam etgan.

Qashqar rubob ijrochiligi ta’limi – bu nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki milliy musiqiy merosni chuqur anglashni o‘z ichiga olgan murakkab va nozik jarayondir. Ta’lim jarayonida asosan quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Asbobni tanish va tutish qoidalari – rubobning tuzilishi, tovush olish, to‘g‘ri o‘tirish va mizrobni ishlatish.
2. Boshlang‘ich mashqlar va gammalar – torlar bo‘yicha tovushlar, oddiy mashqlar va ohnaglar orqali barmoqlarni rivojlantirish.
3. Texnik usullarni o‘rganish – mizrob urish, trill, glissando, legato, stakkato va ijro texniklari.
4. Repertuar bilan ishlash – xalq kuylarini, maqom parchalarini va klassik asarlarni ijro etish orqali musiqa tuyg‘usi va ifodaviylikni shakllantirish.
5. Ansambl va yakka ijro – boshqa cholg‘ular bilan uyg‘unlikda o‘ynash, sahna madaniyatini rivojlantirish.

Qashqar rubobi, shuningdek, Markaziy osiyo xalqlarining musiqiy madaniyatini ifodalaydi. Bu asbobda musiqiy chiqishlar orqali odamlarning turmush tarzini, urf-odatlarini, tarixiy voqealarni va dardlarini ifodalashadi. Rubobning noyob ovozi va ijro uslubi, shuningdek, xalq orasida birlik va madaniy merosni saqlashda

ahamiyatlidir. Qashqar rubobi odatda yog‘ochdan yasaladi, uning korpusi chuqur, torlari esa metallardan iborat bo‘lib, ularni mizrob yordamida chalinadi. Rubobning tovushi yumshoq, chuqur va ohangdor bo‘lib, u ko‘proq lirik kuylarini ijro etishda ishlatiladi. Qashqar rubobi bo‘yicha ijrochilik ta‘limi asosan “Ustoz – shogird” an‘anasi asosida shakllangan. Hozirgi kunda bu cholg‘u maxsus musiqa maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab internati hamda konservatoriyalarda o‘rgatilmoqda. Bugungi kunda qashqar rubobi nafaqat an‘anaviy san’atda, balki zamonaviy sahnalarda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Yosh ijrochilar uni yangicha yondashuvda chalib, bu cholg‘uni yanada ommalashtirmoqda. Shu bilan birgalikda bu asbob milliy o‘zligimizning ramzi sifatida, xalqimizning musiqiy didi, tarixiy xotirasi va madaniy g‘ururining yorqin ifodasi bo‘lib qolmoqda. Xulosa qilib aytganda, qashqar rubobi xalq ruhining, milliy musiqamizning go‘zalligi va chuqur mazmunining timsolidir. Uni asrash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. . Ibrohimov O. Yangi davr o‘zbek musiqasiga doir. // San ‘at jurnali. 2016yil, 2-soni
2. . Karomatov F.M. O‘zbek xalqimuzika merosi XX asrda. I-kitob - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san ‘at nashriyoti, 1978.
3. . Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to‘plami. 2-kitob. - T., 2002
4. Nurmatov H. “Rubob darsligi” T., 1993
5. 20. Nurmatov H, “Qashqar rubob taronalari” T..., 2003
6. 21. Qosimov R. “Rubob taronasi” T., 1993